


INNOVATIVE
ACADEMY

YOSH OLIMLAR

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



FRANSUZ TILI IMLOSIDAGI BA'ZI BIR KAMCHILIKLAR XUSUSIDA

Radjabov Ruslan

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
www.doi.org/10.5281/zenodo.10485165

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada garchi fransuz tili ancha qadimiy va sayqallangan til bo'lishiga qaramasdan, hali ham tilda mavjud istisnolar tushunmovchiliklar xususida olimlarning fikr mulohazalari keltiriladi va misollar bilan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, talaffuz, etimologiya, imlo, tildagi anomalaiyalar, lotin tili.

Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgan natijaga erisha olmadi. Chunki, o'rta asrlarda Fransiya bir biridan farq qiladigan ko'plab lahjalarni va dialektlarni o'z ichiga qamrab olgan edi. Shu bilan birga, lotin tili cherkov, olimlar, ulamolar va ta'lim tili bo'lsa-da, ammo, aholining katta qismi vulgar (xalq tili) til bulmish fransuz tilida so'zlashar edi¹.

Til bir hil yaxlitlik sifatida tushunilmagan, balki so'zlovchining malakasi nuqtai nazaridan ham, jamiyatda aylanib yuradigan ijtimoiy ob'ekt nuqtai nazaridan ham bir xil va beqarordir. Sossyur ilgari taklif qilgan tilning, ma'lum bir ma'ruzachining yoki aniq lingvistik jamoaning kontseptual tavsifi faqat o'rtacha, bu statistik qurilish masalasidir.

Birinчилardan bo'lib, Jak Peletye du Mans "**écrire comme on parle**" ya'ni "**gapirayotgandek yozish**" kerak, deya ta'kidladi, undan keyin Lui Megret etimologik imlo tarafdorlaridan farqli o'laroq ularni "lotinlar" va aksincha, fonologik imloni himoya qiladiganlarni "zamonaviylar" deb atadi.

Sorbonna Nouvelle universitetining fransuz tilshunosligi va ijtimoiy lingvistikasi professori Mariya Kandeа bu haqda shunday deydi "*Agar biz Molyerni qanday bo'lsa, shunday qilib o'rgatsak, fransuz tiliga katta xizmat qilgan bo'lardik. Bu hozirgi fransuz tili endi Molyerning tili emasligini aniq ko'rsatardi*".

Ko'plab buyuk mutaxassislar, lingvist olimlar, imlo islohotlari tarafdorlari va bunga qarshilar ham bo'lgan. Imlo islohoti tarafdorlari jonli tilning rivojlanishi, xususan, hatto fransuz tilini o'zlashtirganlarni ham bezovta qiladigan anomalaiyalar yoki qoidabuzarliklarni bartaraf etish orqali rivojlanishi kerakligini ta'kidlashadi. Fransuz tili uchun "javobgar" bo'lgan Fransiya akademiyasining vazifasi va maqsadi: "*Tilimizga ma'lum qoidalarni berish va uni sof, ravon, to'g'ri talaffuz qilish hamda san'at va fanlar bilan shug'ullanishga qodir qilish ustida ishlashdir*" deb yozilganligiga guvoh bulamiz. Shundan so'ng, akademiya fransuz tili orfografiyasiga oid imlo qoidalari tug'risidagi o'zgarishlarni kiritgan holda uni 9 marta nashr ettirdi. Mazkur Akademiyada mashhur akademiklar : La Fonten, Kornel, Rasin yoki Bualo va ko'plab olimlar ishtirok etdilar.

Mariya Kandeа va Laélie Veron "Parler comme jamais" deb nomlangan asarlarining bir nechta boblarini imlo masalasiga bag'ishlaydilar. Ularning fikricha, 1990 yilda e'lon qilingan yangi imloning katta xatosi bir necha ming so'zni tizimsiz tarzda o'zgartirish orqali yarim islohot bilan kifoyalanish edi. Fonetik yozuvga tushib qolmasdan, keraksiz qo'sh undosh tovushlarni,

¹ Mireille Huchon. *Histoire de la langue française*. Poche. 2002

² Académie française, Article 24 des statuts.

lotin harflarini **œ** yoki **ae** uchun **é** harfini va yunoncha **ph, th, rh** va **y** diftonglari uchun oddiy **f, t, r** va **i** harflarini, boshqa lotin tillarida bo'lgani kabi yo'q qilish ancha ishonchliroq bo'lar edi³ degan fikrni ilgari suradi.

Muxtasar qilib aytganda, hech qachon amalga oshirilmagan ammo ko'plab o'zgartirishlar kerak bo'lgan holatlar mavjud. Misol uchun bir so'z oilasiga mansub bo'lgan "honorer" bitta **n** harfi va "honneur" ikkita **n** harfi bilan. Nega "donner" ikkita **n** bilan va "donation" so'zi bitta **n** bilan yozilishi kerak? Bu bir asr oldin soddalashtirilgan bo'lishi kerak edi deya savol ostiga oladi olimlar. Bilamizki, tildagi istisnolarni qanchalik ko'p o'chirsak, tilni shunchalik soddalashtirgan va qanchalik soddalashtirsak, shunchalik to'g'ri yo'nalishda bo'lamiz.

References:

1. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari
2. Radjabov, R. (2020). Moyens d'exprimer du sens futur dans les constructions hypothétiques. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 6(2).
3. Radjabov, R. "Научные взгляды ученых на употребление термина «будущее». На славянском и персидском." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 16 (2022): 16.
4. Radjabov, R. (2021). FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA 'UZUMCHILIK' LEKSIKASINING LINGVOKULTROLOGIK TAHLILI VA OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
5. Radjabov, R. (2023). Орфография НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ОРФОГРАФИИ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА: теоретические взгляды ученых на орфографию. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27(27).
6. Radjabov, R. (2023). ACCENTS ET MARQUES ORTHOGRAPHIQUES EN FRANÇAIS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 28(28).
7. Radjabov, R. (2023). A PROPOS DU CONCEPT D'ORTHOGRAPHE FRANÇAISE. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 28(28).
8. Rajabmurodovich, R. R. (2023, February). FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASIGA UYG'ONISH DAVRI TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR TO'G'RISIDA. In "CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).
9. Radjabov, Ruslan. "TILSHUNOSLAR AHAMIYATIDAGI TINISH BELGILARINING DASTLAVKI SHARHLAR." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 31.31 (2023).
10. Radjabov, Ruslan. "FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 30.30 (2023).
11. Radjabov, Ruslan. "FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASIGA UYG'ONISH DAVRI TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR TO'G'RISIDA." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 29.29 (2023).
12. Radjabov, Ruslan. "Orfografiya FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASIGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR: orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 27.27 (2023).
13. Ruslan, Radjabov. "Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 726-730.

³ Maria Candea, Laélia Véron. *Parler comme jamais. Le Robert, 2021.*

14. Ruslan, Radjabov. "À propos du terme orthoépie." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 731-735.

INNOVATIVE
ACADEMY